

GLOBALASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA YOSHLAR MASALASI

*Kamilov Mahmudjon Abduqaxorovich,
Xoliqov Shuxrat Abduxamidovich*

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra katta o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonida O'zbekiston ta'lim tizimida yoshlar masalasi to'g'risida, bunda jaxon tajribasi, bizning mamalakatimizda ushbu yunalishda olib borilayotgan islohatlar haqida ham fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim-tarbiya, qadriyatlar, yosh avload, intellectual

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratila boshlandi va o'tgan yillar davomida ta'lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalalasiga aylanib bormoqda». Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasida bugungi kunga kelib barcha sohalarida islohotlar o'tkazilgani kabi ta'lim tizimida ham salmoqli ishlar amalga oshirilib, zamonaviy ta'lim tizimiga asos solindi.

O'zbekiston Respublikasida demokratik jamiyatni qaror topishi o'z navbatida, har bir insonni erkin fikrlashini talab etdi. Darhaqiqat, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim garovi ekanligini hayotning o'zi belgilab berdi. va ushbu vazifa ta'lim-tarbiyaga oid bir qator huquqiy-normativ hujjatlarda o'z aksini topdi. Jumladan, har bir insonning bilim olish huquqi va bepul umumiy ta'lim olishini davlat tomonidan kafolatlanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kabi hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lsa, 2020 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq mamlakatimizda 9+2 sxemasi bo'yicha 11 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etilishi zamonaviy ta'lim tizimining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirdi.

Shubhasiz, ushbu hujjatlarning maktabgacha ta'limdan to fanlar akademiyasigacha bo'lgan zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimini yaratishi globallashuv jaryonida O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatini belgilab berdi.

Jahon tajribasida o'xshashi bo'lmagan mazkur hujjatlar, Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi va Oliy ta'lim tizimini isloh etishga doir huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi hamda hayotga tadbiq etilishi davlatimiz tomonidan jismoniy sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan doimiy e'tibordan dalolat beradi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan vaqt mobaynida mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanishi barobarida globallashuv jarayoniga mos ravishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan zamonaviy ta'lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish zaruriyatini tug'dirdi. Ma'lumki, XX

asrda insoniyat yadro qurollari xavfi, turli tabiiy va texnogen holatlar tahdidiga qarshi kurashgan bo'lsa, bugun ular qatoriga «globallashuv» degan jarayonning xavfxatari ham qo'shildi va u biz xohlaymizmi yo'qmi, bugungi kunga kelib, eng ommalashgan tushuncha darajasiga ko'tarildi. O'tgan davr mobaynida globallashuv kirib bormagan va qo'llanilmaydigan biror soha qolmadi. Birovlar unga insoniyatning taraqqiyotini va faravonligini ta'minlovchi omil sifatida qarasa, boshqa birovlar boy davlatlarning yanada boyishiga, kam taraqqiy etgan mamlakatlarning ularga tobe bo'lib qolishiga olib keladi, degan fikrlarni ilgari sura boshladi. Boshqa bir adabiyotlarda esa globallashuv jarayoniga jahondagi mamlakatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, birlashuvi yoki, voqeahodisalarning bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo'lishi, butun Yer sharini qamrab oluvchi jarayon sifatida ta'rif beriladi. Eng qizig'i shundaki, ushbu tushuncha haqida yagona va universal shakldagi tarifni berish bugungi kunda ancha murakkabdir. Chunki, har bir muallif tomonidan berilgan tarif yoki izohlar hamon birbirini to'ldirishda davom etmoqda.

Aynan, mana shunday, bir globallashuv jarayonida har bir davlatning yagona kuchi va tayanchi yuksak intellektual salohiyatli va ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk barkamol avlod hisoblanadi. Bu borada yosh avlodni dunyoviy fanlarni mukammal o'zlashtirib borishi, bir necha xorijiy tillarda erkin muloqot qila olishlari uchun barcha shartsharoitlar yaratilishi bilan birga barchamiz oldimizda turgan asosiy masala bu bugungi avlod vakillarini milliy qadriyatlar ruhida, o'zbekona urfodatlarini puxta singdirish barobarida bag'rikenglik, tinchliksevarlik va insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish har birimizning kechiktirilib bo'lmas vazifamizga aylandi. Mustaqil taraqqiyot yo'lining ilk kunlaridanoq, ta'limning barcha turlaridagi o'quv fanlari dasturlari mafkuramizga zid bo'lgan g'oya va mafkuradan «ozod» etilib, suveren davlatning milliy manfaatlariga mos g'oyalar bilan boyitila boshlandi.

Ma'lumki, O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik tarixiy Vatani hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning vakillariga nisbatan hurmatning ta'lim tizimida ham ta'minlanganligi davlat ta'limining o'ziga xos bir yutug'idan dalolat beradi.

Zamonaviy ta'limga ega bo'lgan O'zbekistonda ta'lim nafaqat o'zbek tilida balki, boshqa qardosh va xorijiy tillarda ham olib borilayotgan bo'lib, doimiy ravishda kerakli o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanib bormoqda.

Jumladan, qoraqalpoq tilida – 394 ta, rus tilida - 806 ta, qozoq tilida – 483 ta, tojik tilida – 238 ta, qirg'iz tilida – 61 ta va turkman tilida – 46 ta maktabda ta'lim olib borilayotgan bo'lib, unda o'quvchilar milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanib kelinmoqda. Maktablar o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash maqsadida birgina, 2014 yilning o'zida maktab o'quvchilari uchun 34 million 500 ming nusxadagi darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar yurtimizdagi ta'lim olib boriladigan 7 tilda nashr qilinganini alohida qayd lozim.

Pedagogik-psixologik tahlillardan ma'lumki, har bir inson tug'ma yoki ko'p yillar davomida puxta egallagan bilimi orqali o'z sohasi bo'yicha kuchli va yetuk mutaxassis bo'lishi tabiiy, lekin hozirgi vaqtda, butun dunyoda moliviy - iqtisodiy inqiroz va ma'naviy tanazzul ketayotgan bir davrda mamlakat yoshlariga berilayotgan ta'lim-

tarbiya negizidagi asosiy masala davlatimiz va jamiyatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodni ona Vatanimiz ertangi kuniga munosib voris qilib tarbiyalash masalasidir.

Umuman olganda, globallashuv jarayonida O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

–bugungi avlod vakillarini ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlashga yo'naltirish, uni puxta o'zlashtirish bilan birga ma'naviy-ahloqiy salohiyatini bag'rikenglik, yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish;

–ta'lim barcha bo'g'inida «ota-ona – mahalla – ta'lim muassasasi» hamkorligi takomillashtirish;

–har bir yosh avlod qalbida millat va mamlakat taqdiriga dahldorlik tuyg'ularini mustahkamlash;

–yoshlar ongi va qalbini ona Vatan o'tmishi, boy moddiy-ma'naviy merosi va mashaqqatli taraqqiyot yo'li tarixiy haqiqati hamda milliy g'oya bilan doimiy ravishda qurollantirib borish lozimdir. Chunki qayerda g'oyaviy bo'shliq yuzaga kelsa, o'sha yerda yot g'oyalar hukmronlik qilishi achchiq haqiqatdir.

Muxtasar qilib aytganda, millat yuzi va ertangi kuni hisoblangan yoshlar ma'naviyati, tarbiyasiga nafaqat ziyoli balki, ota-ona va mahalla kuy ham birdek mas'ul ekanligini his etib, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, bilim va salohiyatini oshirsagina, biz ko'zlagan buyuk maqsad – ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot qurilishi va boqiyiligiga erishamiz. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarimizning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish biz olib borayotgan davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalish»dir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Miliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 504-505betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent: «O'zbekiston», 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. // 2020 yil 23 sentabr.
4. Otamurodov S. Globallashuv va milliyma'naviy xavfsizlik. Toshkent: «O'zbekiston», 2013. 11bet.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 jild. Toshkent.: 2006. 507bet.
6. Otamurodov S. Globallashuv va milliyma'naviy xavfsizlik. Toshkent: «O'zbekiston», 2013. 456 b.
7. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1991-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. - Toshkent: «O'zbekiston», 2014. 106-bet.